

Naycha bilan chizamiz






Portret – tasviriy san’at janri. Biror inson yoki odamlar guruhi tasvirlangan rasm portret deyiladi.



Bugun siz noodatiy texnika yordamida portret chizishga urinib ko’rasiz: sochlarni sharbat ichiladigan naycha vositasida hosil qilasiz. Buning uchun qog’ozga bo’yoq tomizib, naychadan puflasangiz, u yoyilib, quvnoq va yorqin soch tutamlari – kokillar paydo bo’ladi.

Rasm chizish bosqichlari:

1. Bosqichma-bosqich bosh, bo’yin, qo’llar va kiyim eskizini* **chizing**. Unga ko’z, burun va og’izni qo’shing.



2. Soch chizig’i bo’ylab mo’yqalamda **bir necha tomchi bo’yoq tomizing**.
3. Unga naychani yaqin olib borib **shunday puflangki**, bo’yoq tomchilari tepaga va atrofga yoyilib ketsin. Shunda ajoyib soch tutamlari hosil bo’ladi.
4. Kiyimlar va boshqa detallarni **bo’yang**.

***eskiz** – bo’lg’usi kartinaning dastlabki oddiy rasmi



3



1



2



3



4

